

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARINING BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI VAKOLATLARI

Abdurazzoqova Nilufar

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

“Adolatning bolalikdan boshlanishi-kelajak uchun mustahkam poydevordir”

Annotatsiya: Davlat boshqaruvi organlarining bolalar huquqlarini himoya qilishdagi roli va vakolatlari tahlil qilinadi. Bolalar huquqlarini himoya qilish xalqaro va milliy huquqiy me'yorlarga asoslanib amalga oshiriladigan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asosi, davlat boshqaruvi organlarining vazifalari, bolalar huquqlarini himoya qilish tizimidagi asosiy yo'nalishlar, amaliyot va muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Bolalar huquqlari, konvensiya, deklaratsiya, milliy va xalqaro huquq, ijtimoiy himoya, qonunlar tahlili, islom ta'limoti.

Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to'lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashsiz ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.

Bola huquqlarining ta'rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining asosiy g'oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag'ishlangan. Unda aytilishicha, "Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam olish huquqini beradi". Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo'shimcha yordam va qo'llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Ya'ni, bolalar o'zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatasiya va suiiste'molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo'shimcha huquqlarga ega.

1979 yildan 1989 yilgacha BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko'plab mamlakatlari mutaxassisleri bola huquqlari to'g'risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo'ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo'ylab bolalar hayotini o'zgartirishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992 yil 9 dekabrda qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2008 yil 11 dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni, 2008 yil 12-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni ratifikatsiya qilgan. "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" qoidalarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 1999 yilda dastlabki, 2005 yilda ikkinchi davriy, 2010 yilda uchinchi va to'rtinchi davriy, 2019 yilda beshinchi davriy hisobotlari BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga topshirilgan.

Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta'minlashning dolzarbligini tan oladi. Konvensiyaga ko'ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bolalar manfaatlarining ustuvorligini tan olishdir. Unga ko'ra har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lgan g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush darajasiga ega bo'lgan oilada o'sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik va zo'raonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan. Hususan, Konstitutsiyaning 78-moddasidan quyidagicha norma o'rin olgan: "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi".

So'nggi yillarda O'zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, "hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi" degan tamoyilga amal qilmoqda. Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar "Bolaning eng yaxshi manfaatlari" prinsipini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra ushbu Qonunning maqsadi bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹

Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar

¹ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/mact/-1297315>
www.tadqiqotlar.uz *14-to'plam 1-son dekabr 2024*

belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.²

Ushbu Qonunga ko'ra:

bola (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar);

bolaning qonuniy vakillari — ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar;

vasiylik va homiylik — ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ularga ta'minot, tarbiya hamda ta'lim berish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Vasiylik o'n to'rt yoshga to'lmagan, homiylik esa o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan belgilanadi.³

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;

bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlarini hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;

bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;

bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

²O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2-modda. <https://lex.uz/mact/-1297315>

³O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 3-modda. <https://lex.uz/mact/-1297315>

bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;
bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;
bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.⁴

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z vazifalari doirasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikni ijro etish;

bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari hamda hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish;

bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari, bolalar muassasalari, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini ro'yobga chiqarishga doir tadbirlarni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

davlatga qarashli bolalar muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nodavlat bolalar muassasalarini rivojlantirishga ko'maklashish chora-tadbirlarini ko'rish;

bola huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish hamda xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash;

axborot-ma'rifiy faoliyatni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va boshqa organlarning, tashkilotlarning bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda bola huquqlari bo'yicha vakolatli organ tashkil etilishi mumkin.⁵

⁴O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 4-modda. <https://lex.uz/mact/-1297315>

⁵O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 5-modda. <https://lex.uz/mact/-1297315>
www.tadqiqotlar.uz

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq har bir bolaga inson hamda fuqaro huquqlari va erkinliklari tegishli bo'ladi hamda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilgan bolalar teng hamda har taraflama himoyadan foydalanadi. Davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radi.

Bola huquqlari cheklanishi mumkin emas, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Bolalar har doim mehrga, g'amxo'rlikka muhtoj bo'ladi. Ularning huquq va erkinliklari to'liq kafolatlanishi shaxs shakllanishi, davlat va jamiyat istiqboli mustahkam bo'lishida nihoyatda muhim.

Bola huquqlariga huquqiy ta'rif bersak: – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklar.

Agar yaxshilab razm solsak, ushbu ta'rif mohiyati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy g'oyalardan kelib chiqadi. Deklaratsiyaning 25-moddasi bolalarga bag'ishlangan bo'lib, "Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam olish huquqini beradi", deb belgilab qo'yilgan

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e'lon qilganligini eslatib, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga to'liq oladigan bo'lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamoloti uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi zarurligini e'tirof etib, bola jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan g'oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib, bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924 yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'zda tutilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktda, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli xujjatlarida e'tirof etilganligini e'tiborga olib, Bola huquqlari deklaratsiyasida ko'rsatib

o'tilganidek, "bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj" ekanligini e'tiborga olingan.

Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to'g'risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari") va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklarini e'tirof etib, bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligi e'tirof etildi.

Inson huquqlari ilmiy yo'nalishining paydo bo'lishi haqida so'z borganda, mutlaq ko'pchilikning fikriga dastlab G'arb olimlari tomonidan shakllantirilgan konsepsiyalar keladi. Darhaqiqat, tarixiy ildizlari antik davrga borib taqaladigan ideal orzu – insonning tabiiy, ya'ni unga Yaratgan tomonidan ato etilgan huquqlarni imkon qadar to'liq ro'yobga chiqarish haqidagi g'oyaning shakllanishi Aflotun va Arastu kabi mutafakkirlar bilan bog'liqdir. Tarixiy Ustrushana – bugungi Jizzax vohasidan yetishib chiqqan buyuk faqih Abul-Fath Majduddin Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn Ustrushaniy ilmiy zakovatining mahsuli bo'lgan "Jomi ahkom as-sig'or" ("Bola huquqlari kodeksi") asari nafaqat musulmon huquqshunosligi, balki umumbashariy huquqiy madaniyat durdonalari qatoriga kiradi. Asarda bola huquqlari to'rtta kategoriyaga bo'lib o'rganilgan. Ular bolaning ona qornidagi, go'daklik, balog'at va o'smirlik davrlari bo'lib, ular huquqiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. E'tiborli jihatlaridan yana biri shundaki, Ustrushaniy asari G'arb dunyosidagi inson huquqlari masalasiga bag'ishlangan nazariy konsepsiyalar shakllanishidan taxminan to'rt yuz yil avval yaratilgan. Boshqacha aytganda, antik davrda ko'tarilgan insonning tabiiy huquqlari haqidagi g'oyaga G'arbda qayta murojaat qilinishidan anchagina muqaddam Sharqda uni ro'yobga chiqarishning mukammal mexanizmlari shakllantirilgan edi. Zero, islomdagi fatvo instituti asrlar davomida musulmon jamiyati hayotini tartibga solishning shariatga asoslangan muvofiqlashtiruvchi mexanizmi vazifasini bajarib kelgan, fatvolar ijtimoiy va individual ahamiyatga molik katta-kichik muammolar

yechimining huquqiy-me'yoriy mezonlari sifatida amal qilgan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'rta asrlar va keyingi tarixiy davrlarda ham norasidalar huquqlariga bag'ishlangan alohida asar yozilgani ma'lum emas. Bu Ustrushaniy asarining ilmiy qimmatini yanada oshirib, uni inson huquqlarining muhim segmentlaridan birini tashkil etadigan yuvenal huquq, ya'ni bola huquqlari ilmiy yo'nalishining shakllanishi tarixiga oid benazir manbaga aylantiradi.

Ta'kidlash o'rinliki, oxirgi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida diniy-ma'naviy mohiyatli qadriyatlarning hayotiy maqomini tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bunyod etilayotgan "O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi" deb nomlangan muazzam ma'rifat qo'rg'oni kabi ushbu sohaga taalluqli ta'sirchan mexanizmlar bunyod etilmoqda Bunday savobli ishlar negizida Ustrushaniy kabi alloma bobokalonlarimiz zakovati bilan yaratilgan bezavol durdonalar hamda ularning sa'y-harakatlari natijasida o'rta asrlarda yurtimiz hududida shakllangan ilmiy-madaniy markazlar faoliyatini o'rganish va ularning intellektual mahsulini xalqimizga qaytarishdek ezgu maqsadlar yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/mact/-1297315>
3. Islom ta'limotida bola huquqlari va ta'lim-tarbiyasiga oid me'yorlar. D.Karimova. 248 печатных страниц 2024 год. Электронная книга. PDF формат (в наличии).
4. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. Conferencea, 126-134.
5. Mamatmuratovna, K. D., & Gapparovich, T. S. (2021, April). SYSTEM OF PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR SPIRITUAL, LEGAL AND LEGAL EDUCATION. In Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 168-171).
6. Холназарова, М., & Алибаева, Д. (2021). БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ ВА РАЎБАР ШАХСИНИНГ ИНДИВИДУАЛ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue), 209-212.